UO‘K 93/94

JANUBIY URAL SANOAT KORXONALARIDAGI O‘ZBEKISTONLIK “MEHNAT ARMIYACHILARI”NING TAQDIRI

X.R. Kurbanov

Ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakat iqtisodiyoti va sanoati harbiy ishlab chiqarishga moslashtirilishi jarayonida ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyoj ko‘paydi. Shu vaziyatda Ittifoq Davlat mudofaa qo‘mitasining 1942-yil 14-oktabrdagi 2414-son qarori asosida O‘zbekistondan 150 ming ishchi Rossiyaning turli hududlariga, jumladan, Janubiy Uraldagi o‘nlab qurilish va sanoat korxonalariga safarbar qilindi. Maqolada o‘zbekistonlik “mehnat armiyachilari”ning yashash holati, ta’minoti, mehnat sharoitlari, muammolari va g‘alabaga qo‘shgan hissasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Ikkinchi jahon urushi, Janubiy Ural, safarbarlik, “mehnat armiyachilari”, taqsimot, faoliyat, mehnat, ishlab chiqarish, sanoat, qurilish, samaradorlik.*

Во время Второй мировой войны, по мере того как экономика и промышленность страны адаптировались к военному производству, потребность в рабочей силе возросла. В этой ситуации на основании постановления Государственного Комитета Обороны № 2414 от 14 октября 1942 года из Узбекистана было мобилизовано 150 тысяч рабочих в различные регионы России, в том числе на десятки строительных и промышленных предприятий Южного Урала. В статье анализируются условия жизни, обеспечения, труда и проблемы узбекских «трудармейцев», их вклад в победу.

Ключевые слова: *Вторая мировая война, Южный Урал, мобилизация, «трудовая армия», распределение, деятельность, труд, производство, промышленность, строительство, эффективность.*

Kirish

Yaqin-yaqingacha biz Ikkinchi jahon urushi, urushda ishtirok etgan o‘zbekistonliklar, ayniqsa, front orti mehnati, shuningdek, O‘zbekistondan safarbar qilingan “mehnat armiyachilari” tarixi va taqdiri haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmadik. Bor ma’lumotlarimiz ham soxtalashtirilgan, tarixiy faktlar atayin buzib ko‘rsatilgan, hatto ayrim ma’lumotlar afsonalashtirilib, o‘zbek xalqining g‘alabaga qo‘shgan munosib hissasi yetarlicha talqin qilinmagan edi. Vaholanki, keyingi tadqiqot va o‘rganishlar natijasida 1 million 950 ming 700 nafardan [1. B. 35] ortiq o‘zbekistonliklar Ikkinchi jahon urushida qatnashganligi ma’lum bo‘ldi.

1941-yil 22-iyunda boshlangan urush sobiq Ittifoqdagi aksariyat sanoat korxonalarining harbiy mahsulot ishlab chiqarishga moslashtirilishiga sabab bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida ishchi kuchi yetishmovchiligiga olib keldi.

Ittifoq Davlat Mudofaa Qo‘mitasining 1942-yil fevral oyida e’lon qilingan qaroriga muvofiq Ittifoq hududidagi 19–50 yoshli nemis millatiga mansub kishilar qurilish va sanoat korxonalariga safarbar qilindi. Ular orasida O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan nemislar ham bo‘lib, birgina “Chelyabinskmetallstroy” korxonasi tarkibidagi zavodlarda 1383 nafar ishchi xizmat qilgan [2].

1942-yil 14-oktabrdagi 2414-sonli “maxfiy” qaror bilan O‘zbekistondan 150 ming ishchi Rossiyaning turli sanoat va qurilish korxonalariga ishchi kuchi sifatida safarbar qilingan. 1942–1944-yillarda O‘zbekistondan safarbar qilingan “mehnat armiyachilari” tarixi o‘rganilmagan, dolzarb va alohida tadqiqotni talab qiladi. Bugungi kunda safarbar qilingan ishchilarning yashash holati, sharoitlari, mehnat samaradorligi va muammolarini o‘rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Material va metodlar

Maqolani tayyorlashda Rossiya Federatsiyasining Davlat arxivi (RFDA), Rossiya Federatsiyasining ijtimoiy-siyosiy tarixi Davlat arxivi (RFISTDA), Chelyabinsk viloyati birlashgan Davlat arxivi (ChVB-

DA), Orenburg viloyatining Yangi tarixi markaziy hujjatlar arxivi (OVYTMHA) va mavzuga oid turli adabiyotlardan foydalanildi.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasining Davlat arxivining R.9114-fond – SSSR Ichki ishlar Xalq komissarligi koloniyalari va Mehnat-tuzatuv lagerlari Bosh boshqarmasi fondining 1157, 1216, 1433, 68-yig‘majildlari, R.9517-fond – SSSR Xalq komissarlari sovetining ishchi kuchini hisobga olish qo‘mitasi fondining 5, 7, 9, 26, 164-yig‘majildlari, Chelyabinsk viloyati birlashgan Davlat arxivining K-288, P-288, R-220, P-297, R-792, R-962, R-1619, R-1283, P-234, P-124 fondining 43 ta yig‘majildi hujjatlari o‘rganildi, tahlil qilindi va ilmiy iste’molga kiritildi.

Qo‘yilgan muammo tarixiylik prinsipi asosida sotsiologik tahlil metodidan foydalangan holda tadqiq etildi.

Natijalar va ularning tahlili

Urushning shiddat bilan boshlanishi va 1941-yil oxiriga qadar tezkorligi natijasida Ittifoqning Yevropa qismi egallanishi metallurgiya sanoatida katta yo‘qotishlarga sabab bo‘lgan edi. Bu davrga kelib mamlakatning Yevropa qismida xom ashyodan cho‘yan va ferroqotishmalarni ajratib oladigan 60 dan ortiq domna, cho‘yan va qorametall aralashmasidan po‘lat ishlab chiqaradigan 200 dan ortiq marten pechlari, quvur tayyorlaydigan 164 ta tegirmon, koks pechi batareyali 204 ta korxona mavjud edi [3. B. 49]. Umuman olganda, urush boshlanishi davrida Ittifoqning g‘arbiy hududlarida mamlakat aholisining qariyb 40 foizi istiqomat qilib, u hududlarda 31850 ta sanoat korxonasi, 1135 ta shaxta, 61 ta yirik elektrostansiya, shuningdek, ko‘plab yengil sanoat va boshqa korxonalar faoliyat yuritgan.

Bularning hammasini faqat haddan tashqari qisqa muddatlarda, lekin shu bilan birga Ittifoqning qariyb 40 foiz aholisi istiqomat qiladigan, ko‘mirning 63 foizi qazib olinadigan, po‘latning 50 foizi ishlab chiqariladigan, donning 38 foizi yetishtiriladigan, qudratli mashinasozlik bazasi, shu jumladan, ko‘pgina mudofaa korxonalari joylashgan hududni bosqinchilar bosib olgan bir sharoitda amalga oshirish lozim edi.

Harbiy harakatlarning boshlanishi davlat va jamiyat taraqqiyotini ancha ortga surdi, ishlab chiqarishda mehnat resurslarining yetishmasligi, urush boshlangan hududlardagi sanoat korxonalarining Ural, Sibir, O‘rta Osiyo va boshqa hududlarga ko‘chirilishi ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga olib keldi.

Urushning ilk sakkiz kunida mamlakat sanoati va qishloq xo‘jaligidan 5,3 mln. kishi harakatdagi armiya saflariga safarbar qilindi. 1941-yilning noyabr oyi oxiriga kelib Vermaxt tomonidan egallangan Sovet Ittifoqining Yevropa qismi hududida yashayotgan mamlakat aholisining deyarli 40 foizi ishlab chiqarish munosabatlaridan ayrildi. Bu hol esa 1942-yilning oxiriga kelib Ittifoq xalq xo‘jaligidagi ishchi kuchi sonining qariyb teng yarmiga kamayib ketishiga olib keldi.

SSSR XKS va VKP(b)ning 1941-yil 29-iyundagi qarori bilan birinchi navbatda front oldi hududlaridan zarur sanoat korxonalari, jihozlari, xom ashyo resurslari, davlat ahamiyatiga molik boshqa qimmatli buyumlar, shu bilan birga mutaxassis ishchi va muhandislar, aholi evakuatsiya ro‘yxatiga kiritildi. Shuningdek, qaror bilan evakuatsiya qilish imkoniyati bo‘lmagan va dushman ixtiyoriga o‘tishi xavfi bo‘lgan inshootlarni yo‘q qilish yoki foydalanib bo‘lmaydigan tarzda ishdan chiqarish topshirig‘i ham berilgan edi.

1941-yil ikkini yarmidan front yaqinidagi hududlardan sharq tomonga 2593 ta sanoat korxonasi, 11 mingdan ortiq traktor, ko‘plab sovxoz va kolxoz mulklari hamda 10 millionga yaqin aholi ko‘chirilgan. Barcha mulk va odamlarni ko‘chirish temir yo‘lchilar zimmasiga tushgan. Evakuatsiya jarayonida 1,5 millionga yaqin temir yo‘l vagonlaridan foydalanilgan.

Mamlakat janubidagi “Zaporojstal”, “Azovstal”, Uralga ko‘chirilgan “Elektrostal” korxonalarida cho‘yan qotishmalari ishlab chiqarish 68 foizga, po‘lat ishlab chiqarish 58 foizga, alyumin ishlab chiqarish 60 foizga va ko‘mir qazib olish 63 foizga tushib ketgan edi. Bular og‘ir va harbiy sanoat uchun muhim ashyolar hisoblanib, mudofaa sanoati, qurol-aslaha va harbiy texnikalar ishlab chiqarish sur’atlariga katta ta’sir ko‘rsatgan edi.

“Mehnat armiyachilari” tushunchasi Ikkinchi jahon urushi davrining o‘ziga xos atamalaridan biri bo‘lib, davrning, ayniqsa, iqtisodiyot va harbiy sanoat ehtiyojini “ixtiyoriy-majbriy” shaklda qondirish uchun xizmat qilgan aholi qatlami sifatida ta’riflanadi. Ular harakatdagi harbiylar maqomiga tenglashtirilib, sanoat ishlab chiqarish va qurilish ishlariga band qilingan. Shu jumladan, o‘zbekistonlik “mehnat armiyachilari”ning samarali mehnati g‘alabagacha bo‘lgan “masofani” qisqartirishga munosib hissa qo‘shgan.

O‘zbekistondan Janubiy Ural hududlariga yetib borgan “mehnat armiyachilari” qurilish va sanoat obyektlariga milliy safarbarlik nuqtayi nazaridan brigada, uchastka, otryad (kolonna) tarkibiy bo‘linma sifatida taqsimlangan. Mehnat armiyachilarining faoliyati umumiy tenglikda tashkil qilingan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish va sanoat korxonalarida mehnat sharoitlari

turlicha bo‘lgan. Ular asosan Chelyabinsk metallurgiya zavodi qurilishi 5-son qurilish otryadi tarkibiga kiritilganlar [4].

1942-yilning oxirida Chelyabinsk viloyati sanoat korxonalarida 11700 nafar o‘zbek ishchisi faoliyat olib borishgan. Ularning qariyb 70 foizi sanoatda ishlash tajribasiga ega bo‘lmaganligi sababli qurilish brigadalarida ishlaganlar. Jumladan, qurilishda 1600 nafar, 20-qurilish-montaj boshqarmasida 1000 nafar, 22-qurilish-montaj sexida 750 nafar, 8-zavodda 900 nafar, 24-zavodda 500 nafar, Magnitqurilish testida 500 nafar, Yujtyajstroyda 500 nafar, Chelyabmetallurgstroyda 870 nafar, yo‘l qurilish trestida 670 nafar, zavodning 24-qurilish boshqarmasida 680 nafar, 20-qurilish boshqarmasida 40 nafar, sanitar-texnik qurilishda 32 nafar, tank qurilishida 1050 nafar, Kirov zavodida 100 nafar, 200-zavodda 128 nafar, Kishtim g‘isht ishlab chiqarish zavodida 38 nafar, Kishtim mexanika zavodida 85 nafar, elektrolit zavodida 63 nafar, shimoliy Karaboshruda boshqarmasida 435 nafar, 114-zavodda 35 nafar, temirchilik zavodida 82 nafar, o‘rmonchilikda 40 nafar, ko‘mir sanoatida 1500 nafar o‘zbeklar faoliyat olib borishgan [5].

1942-yil oktabr oyida Magnitstroy trestida o‘zbekistonlik ishchilar maxsus o‘quv kurslariga jalb qilingan va kasblar bo‘yicha o‘qitilgan.

Ular ish hajmi nisbatan ko‘p va birlamchi bo‘lgan maxsus qurilish-montaj qism, qora va rangli metallurgiya, ko‘mir sanoati, mashinasozlik va boshqa xalq komissariatlarining obyektlarini bunyod qilish ishlariga band qilingan.

1942-yil oxirida Chelyabinskdagi Kirov zavodiga yetib borgan “mehnat armiyachilari”ning bir qismi tank sanoatida ishlay boshlaganlar. Kolonna ishchilari tarkibiy jihatdan “Ishchi kolonnalari bo‘limi” tarkibiga kirgan va zavodning mustaqil tezkor birligi sifatida faoliyat yuritganlar [6].

Ishlab chiqarishga borgan ishchilarni joylashtirish, ishga rasmiylashtirish ikki-besh kunda bajarilishi va bu muddatda korxona yoki qurilish ma’muriyati tomonidan ko‘rpa-to‘shaklar, maxsus kiyim bosh hamda xo‘jalik anjomlari bilan o‘rnatilgan me’yor bo‘yicha ta’minlanishi lozim bo‘lgan. Lekin amalda bu doim ham bajarilmagan.

Safarbar etilgan ishchilar mehnat qilgan ishlab chiqarish va qurilish obyektlarida mehnat sharoitlari nihoyatda og‘ir va noqulay bo‘lgan.

1943-yil may-iyul oylarida Chelyabinsk viloyatidagi o‘n to‘rtta sanoat korxonasini o‘rgangan viloyat sog‘liqni saqlash bo‘limi komissiyasi yashash va mehnat sharoitlarini qoniqarsiz baholagan [7]. Jumladan, 701-Kirov zavodida mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha qoidalarga rioya qilinmagan. Havo aylanish tizimining yo‘qligi, ortiqcha gazlarning to‘planib qolishi, yoritish tizimi me’yoriy talablarga javob bermasligi natijasida mehnat armiyachilari o‘rtasida kasallanish holatlari ortgan. Shuningdek, “Kopeysk-ko‘mir” tresti yerosti shaxtalarida yoritish tizimidagi muammolar tufayli konchilar orasida lat yeyish va mayib bo‘lish holatlari ko‘paygan. Sanoat va qurilish obyektlarida ish hajmining va rejalarning yuqoriligi sababli ish vaqti kuniga 8 soatdan 10 soatgacha bo‘lgan, hatto ayrim qurilish boshqarmalarida 15–16 soatni tashkil qilgan.

Og‘ir yer ishlari, beton, yuklash-tushirish ishlari mehnat armiyachilaridan katta jismoniy chidamlilikni, salomatlikni talab qilgan. Bundan tashqari, ishchilar uchun til bilish bilan bog‘liq muammolar sanoat korxonalarida stanoklarni ishlatish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishda pand bergan [8].

1943-yil davomida Ko‘mir sanoati xalq komissarligi tasarrufidagi “Chelyabko‘mir” trestida o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq va tojik millatiga mansub 903 nafar ishchi mehnatidan foydalanilgan. Yer ostida mehnat qilish nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki jismonan baquvvat bo‘lishni, sog‘likni ham talab qilgan.

Shuningdek, iqlim, maishiy turmush, yashash sharoitlarining noqulayligi, begona yurtlardagi og‘ir va sinovli mehnat 150 mingdan ortiq o‘zbekistonlik taqdirini hal qilgan. Ularning aksariyati bu sharoitlarga bardosh bera olmagan va vafot etgan.

“Mehnat armiyachilari” har biri 200–250 kishi sig‘imidagi, kazarma holatidagi baraklarga yoki ko‘plab yerto‘lalarga joylashtirilgan. Yerto‘lalar yog‘ochlarni juftlashtirilgan holatda yasalgan bo‘lib, yog‘ochlar orasi tuproq bilan to‘ldirilgan, yer qa’riga 1–1,5 metr chuqurlikda, yer sathida derazali turar-joylar shaklida bo‘lgan. Mazkur turar joylarning tomlari yog‘ochdan bo‘lib, loysuvoq qilingan to‘l qatlamidan iborat bo‘lgan. Yerto‘lalarda yashovchilar soni uning hajmiga qarab taqsimlangan, ammo yotoqxonalardagi ahvol va sharoitlar talab darajasida bo‘lmagan. Jumladan, Orskda joylashtirilgan issiqlik elektromarkazi quruvchilari yerto‘lalarga joylashtirilgan bo‘lib, yotoqxona iflos, devorlari hatto suvalmagan, yotoqxona binosi qishki mavsumga umuman tayyor bo‘lmagan.

O‘q-dorilar xalq komissariatiga qarashli 257-son zavod ma’muriyati 1943-yil bahorida safarbar qilingan o‘rtaosiyolik ishchilarni 60 kishidan taqsimlab, yerto‘lalarga joylashtirgan [9].

1943-yilning dekabr oyida 20-son qurilish boshqarmasining 5-, 6-, 7-son qurilish uchastkalari turar-joylari temir yo‘l stansiyalari atrofida joylashgan bo‘lib, ayrimlari matoli palatkalarga, ayrimlari esa vagonlarga joylashishga majbur bo‘lganlar. Ushbu uchastkalardagi sharoit qoniqarsiz bo‘lib, qishda matoli palatkalarda yashayotgan mehnat armiyachilari uchun hatto hammom ham bo‘lmagan.

Bunga o‘xshash sharoitlar Kirov zavodining 5-son uchastkasida ham kuzatilib, ishchilar joylashtirilgan baraklar va yerto‘lalarda yoqilg‘i yo‘qligi va ichki noboplig‘i sababli qishki mavsumda isitish imkoniyati bo‘lmagan. Baraklarning har biri 360 kishiga mo‘ljallangan bo‘lib, yerto‘lalar 120 hamda 220 kishiga moslashtirib kovlangan. Ishchilar ikki yarusli yog‘och va yarimyog‘och o‘rinlarda yotishgan. Bunday holatlar norozilikka, kasallar sonining ortib borishiga sabab bo‘lgan.

Qora metallurgiya xalq komissariatining Chebarko‘l qo‘rg‘onidagi 701-son zavod ishchilari yashashi uchun tayyorlangan yotoqxonalar ham, ulardagi sharoitlar ham qoniqarsiz bo‘lgan [10].

“Korkinoko‘mir” konining 1-, 5-son konchilari ichki qismi suvoq qilinmagan va isitish pechlari yo‘q baraklarda yashashga majbur bo‘lishgan. Konchilar ishlayotgan 30-son shaxtada ichimlik suvi bo‘lmaganligi natijasida odamlar ko‘lmak suvni iste’mol qilishgan.

Buning oqibatida kasallanishlar, ishdan qochib ketishlar va hatto o‘lim holatlari kuzatilgan. 1943-yilda “Chelyabko‘mir” trestiga ishga safarbar qilingan 2968 nafar ishchining 2813 nafari, ya’ni 95 foizi ish joyini tashlab ketgan. Qochib ketgan ishchilar aksariyatining taqdiri fojiali tugagan. Ko‘mir ortish uchun to‘xtagan bo‘sh vagonlarda mehnat armiyachilarining jasadlari topilgan.

Safarbar qilingan o‘zbekistonlik ishchilardan 120 nafari Ichki ishlar xalq komissarligining “Chelyablag” lageridagi maxsus barak va yerto‘lalarga joylashtirilgan [11]. Bu yotoqxonalar GULAG tarkibida bo‘lib, hudud tikanak simli devor bilan o‘rab olingan, devor bo‘ylab qo‘riqchi minorasi o‘rnatilgan, kirish-chiqish uchun vaxta binosi bo‘lgan va uchastkani harbiy qo‘riqchi askarlar qo‘riqlagan. Yashash joyi va ishlab chiqarish hududidan ruxsatnomasiz yakka holda chiqish nafaqat lager aholisi, balki safarbar qilingan ishchilarga ham taqiqlagan.

Shuningdek, hujjatlarda 5-son uchastkadagi yerto‘lalarda yashovchi 291 nafar o‘zbekistonlik “mehnat armiyachilari”ning birortasiga ham yotish uchun choyshablar va ko‘rpa berilmagan, sovun bilan ta’minlanmagan, maxsus kiyimlar yuvilmasdan foydalanilgan” [12].

Shunga qaramasdan safarbar qilingan o‘zbekistonlik “mehnat armiyachilari” sabr va matonat bilan mehnat qilganlar. 1943-yil 14-may holatida 5-qurilish boshqarmasida yashayotgan 218 nafar o‘zbek og‘ir sharoitga qaramasdan rejalarni to‘liq bajarganlar. Ular rejalarni yanvarda 107 foizga, fevralda 111 foizga, martda 190 foizga, mayning 10 kunida 129 foizga bajarib, qo‘shimcha taomlanishga imtiyoz olganlar. Rejalarni 153 foizgacha bajargan Rasulbekov hamda O‘taganovning brigadalari ham shular jumlasidandir.

VKP(b)ning Magnitogorsk shahar xodimlar bo‘limiga yuborilgan hujjatlarida “Magnitostroy” trestida O‘rta Osiyo respublikalaridan safarbar qilingan ishchilarning mehnati salmoqli ekanligi ta’kidlanadi. U yerga yuborilgan 2616 nafar o‘zbek va qozoqlarning 30 foizi malakali mutaxassis sifatida korxonalarga, qolganlari esa yer qazish ishlariga jalb qilingan. Bu ishchilar kunlik rejalarini 100, 120 va hatto 150 foizgacha bajarganliklari ta’kidlanadi [13]. Bunday darajada ishlovchi o‘zbeklar jami ishchilar miqdorining 80 foizdan ortig‘ini tashkil qilgan. Shu sababli ular qo‘shimcha oziq-ovqat ta’minoti olishga haqli bo‘lishgan, ammo ovqat ratsioni qoniqarsiz va sifati past bo‘lgan.

Bundan tashqari, Abdurahmonov brigadasining 15 nafar quruvchisi 136 foizga, Jamoldinovning betonchilar brigadasidan 15 ishchi 138 foizga, Yusupovning yer qazuv brigadasidan 9 nafar ishchi 135 foizga, Islomov brigadasining 13 nafar ishchisi 152 foizga, Qoraboyevning temiryo‘lchilar brigadasidan 10 nafar ishchi 108 foizga ish rejalarini bajarib, kunlik 27–80 rublgacha haq olishgan.

Ishchilar orasida reja bajarish bo‘yicha o‘ziga xos “kim o‘zar” poygasi va shunga yarasha daromad topish faoliyati shakllanib, Yusupjon G‘oziyev rahbarligidagi qurilish ishchilari 115–120 foizga, Yusupov rahbarligidagi brigada quruvchilari 150–200 foizga, Mingboyevning koks ishlab chiqarish brigadasi ishchilari 150 foizga, umuman olganda, o‘zbek ishchilarining barchasi kunlik rejalarini 115–125 foizga bajarganliklari hujjatlarda qayd etilgan [14]. Bu esa ishchilar uchun milliy choyxonalar, milliy taomlar tayyorlash va ayrim yetakchi ishchilarni o‘z yurtlariga borib kelishlari uchun imkoniyat yaratilishi bilan rag‘batlantirilgan.

Nobop sharoitlar, iqlim va kasallik tarqalishi tufayli yerto‘lalarda yashovchi o‘zbeklarga tibbiy xizmat va sanitariya yordami deyarli ko‘rsatilmagan. Kasallar 10–15 kunlab yotoqxonada qolib ketishi natijasida vafot etishgan. Jumladan, 1943-yilning iyun oyida Allayorovning 1-qurilish boshqarmasi 48-brigadasining ishchilari Rahmonov, Ayupov, Sanayev, Maumarov, Eminovlar 12–15 kungacha kasal bo‘lib yotib qolganlar va ularning barchasi 15–16 iyul kunlari vafot etgan.

Kech bo‘lsa-da, xabar olgan tibbiyot punkti xodimlari kasal ishchilarni sog‘lom deb, ishga chiqishga majbur qilganlar, vafot etganlarni esa o‘lim sanasini o‘zgartirib, kasalxonada vafot etgani haqida xulosalar berganlar.

Umuman olganda, doimiy ravishda barcha yerto‘la, barak va yotoqxonalarda o‘nlab betob ishchilar bo‘lishgan. Na tibbiyot xodimlari, na qurilish boshqarmasi rahbarlari, na trest xodimlari ulardan xabar olishmagan.[15]

Xulosa

Ittifoq rahbariyati Germaniyaga qarshi urush boshlanishi bilan mamlakatning mehnat resurslaridan foydalanishga bo‘lgan mavjud yondashuvlarni, kuch va imkoniyatlarni qayta ko‘rib chiqish, yangilarini izlab topish, ehtiyojlarni aniq hisob-kitob qilishga majbur edi. Bundan tashqari mamlakat xalq xo‘jaligida mehnat qilish uchun ishchilar va xizmatchilar safini to‘ldirishning yangi manbalarini topish, ishchi kuchini ko‘paytirish, umaman olganda, butun mamlakat bo‘yicha safarbarlik joriy qilinishiga to‘g‘ri keldi. Bu holatlarning barchasi majburiy xarakterda bo‘lib, muddatlari va vazifalar qat’iy belgilana boshlandi. Urush boshlangandan keyin Ittifoq rahbariyati tomonidan mamlakat xalq xo‘jaligi uchun ishchi kuchi manbalari va sonini oshirishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar natijalarini bera bordi.

DMQning 1942-yil 14 oktabrdagi 2414-sonli qarori ijrosini ta’minlash son va sifat ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Sanoat va qurilishning muayyan bir ishchi kuchiga ega bo‘lishi harbiy davrda sovet iqtisodiyotining birmuncha barqarorlashuviga olib keldi. Mudofaa sanoati, qora va og‘ir metallurgiya, umuman, front va xalq uchun zarur qurilish va sanoat rostmanasiga mehnat armiyachilari kuchiga tayangan edi. Avvaliga, sovet-nemis millatiga mansub kishilarning, keyinchalik O‘rta Osiyo respublikalaridan safarbar qilingan ishchi kuchi Ittifoq iqtisodiyotining barqarorlashuviga, oqibat esa urushda g‘alaba qozonishda ham asosiy kuch sifatida e’tiborda bo‘ldi.

Safarbar qilingan o‘zbekistonlik “mehnat armiyachilari” mamlakat uchun fidoyilarcha mehnat qilishgan. Ammo ularning samarali mehnatlari har doim ham qo‘llab-quvvatlanmagan va rag‘batlantirilmagan. O‘zbekistondan safarbar etilgan ishchilar Janubiy Ural hududidagi sanoat va qurilish obyektlarida ishlash tajribasiga ega bo‘lmaganliklari, tegishli texnik va xavfsizlik qoidalarini bilmasliklari ishlash jarayonlarida qator muammolarga sabab bo‘lgan.

350 mingdan ortiq o‘rtaosiyolik, jumladan, 150 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz fidoyi va zahmatli mehnatlari bilan Ikkinchi jahon urushi davrida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga munosib hissa qo‘shdilar.

Adabiyotlar:

1. *Саидов А*. Парк победы: философия мужества и стойкости. – Ташкент: TASVIR, 2021. – 348 с.

2. Книга памяти. Немцев-трудармейцев ИТЛ Бакалстрой-Челябметаллургстрой. 1942–1946 гг. /Авт. сост. В.М.Кириллов**,** С.Л.Разинков, Е.П.Турова. В 4-х томах. Т.1. – Москва: Нижний Тагил, 2011. – 676 с.

3. *Шмыров Б.Д*. Металл Победы: «Мы за ценой не постоим?!» // Страницы истории. – Челябинск: Челябинский Дом печати, 2009. –С. 47–99.

4. Объеденённый Государственный архив Челябинской области (ОГАЧО): Р.1619-фонд, 1-рўйхат, 133-йиғма жилд, 56, 110-варақлар.

5. Российский государственный архив социаольно-политической истории (РГАСПИ): 17-фонд, 122-рўйхат, 50-йиғма жилд, 6-варақ

6. ОГАЧО. Р.792-фонд, 5-рўйхат, 46-йиғма жилд, 77-варақ.

7. ОГАЧО. Р.1619-фонд, 1-рўйхат, 52-йиғма жилд, 11-варақ.

8. ОГАЧО. П.124-фонд, 1-рўйхат, 359-йиғма жилд, 127-варақ.

9. РГАСПИ. 17-фонд, 122-рўйхат, 50-йиғма жилд, 70-варақ.

10. ОГАЧО. Р.1659-фонд, 1-рўйхат, 13-йиғма жилд, 112-варақ.

11. ОГАЧО. Р.1619-фонд, 2-рўйхат, 15-йиғма жилд, 32-варақ.

12. ОГАЧО. П.288-фонд, 42-рўйхат, 23-иш, 335, 336-варақлар.

13. ОГАЧО. П.234-фонд, 17-рўйхат, 64-йиғма жилд, 13-варақ.

14. ОГАЧО. П.234-фонд, 17-рўйхат, 64-йиғма жилд, 16-варақ.

15. ОГАЧО. П.234-фонд, 17-рўйхат, 64-йиғма жилд, 17-варақ.

THE FATE OF UZBEKISTAN «LABOR ARMY» IN THE INDUSTRIAL ENTERPRISES OF THE SOUTHERN URALS

Xurshid R. Kurbanov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 1(85). 56-62.

[1]Navoi State University. Navoi region, Navoi city, Ibn Sina street - 45 houses. Index 210105. E-mail: info@nspi.uz

Key words: *World War II, Southern Urals, mobilization, "labor army", distribution, activity, labor, production, industry, construction, efficiency.*

The history and fate of the Second World War, the Uzbeks who participated in the war, especially the labor behind the front lines, as well as the "labor soldiers" mobilized from Uzbekistan, have been almost completely unstudied in Uzbek historiography. The history of the "labor soldiers" mobilized from Uzbekistan by the "secret" resolution of the State Defense Committee No. 2414 of October 14, 1942 has not been studied, and requires urgent and separate research. Today, the issue of studying the living conditions, conditions, labor productivity and problems of mobilized workers remains relevant.

In covering this topic, the State Archives of the Russian Federation (GARF), the State Archives of Socio-Political History of the Russian Federation (RGASPI), the Unified State Archives of the Chelyabinsk Region (OGACHO), the Central Archive of Documents of the New History of the Orenburg Region (TSNIOO), and various literature on the subject were used.

Based on the analysis of the historiography and source studies of the topic, this issue was analyzed in terms of historical, scientific, sociological and interdisciplinary methodology.

With the onset of the war and by the end of 1941, more than 830 industrial enterprises from the European part of the Union were relocated to other regions, including the largest metallurgical enterprises to the Southern Urals.

The Uzbek «labor soldiers» were used to build enterprises and militarize industrial production.

The «labor army men» who arrived from Uzbekistan to the Southern Urals were divided into brigades, sections, and detachments (columns) from the point of view of national mobilization at construction and industrial sites. Although the activities of the labor army men were organized on a general basis of equality, working conditions at production and industrial enterprises varied. They were mainly included in the construction detachment No. 5 of the Chelyabinsk Metallurgical Plant.

At the end of 1942, 11,700 Uzbek workers worked in industrial enterprises in the Chelyabinsk region. Almost 70% of them worked in construction crews because they had no experience working in industry.

The working conditions at the production and construction sites where the mobilized workers worked were extremely difficult and unfavorable. Heavy earthworks, concrete, and loading and unloading required great physical endurance and health from the labor army. In addition, problems with the «language» for the workers made it difficult to operate machines and observe technical safety rules in industrial enterprises.

Also, the climate, the harshness of the living conditions, and the hard and trying labor in foreign lands decided the fate of more than 150,000 Uzbeks. Most of them could not withstand these conditions and died.

Despite this, the brigades of the mobilized Uzbeks, led by Rasulbekov, Utaganov, Abdurakhmanov, Jamoldinov, Yusupov, Islomov, Karaboev, Yusupjon Gaziev, and Mingboev, fulfilled their plans by more than 150-200 percent.

Uzbeks living in basements are not provided with medical services and sanitation due to the bad conditions, climate and the spread of diseases. Patients died as a result of staying in bed for 10-15 days.

In particular, Rahmonov, Ayupov, Sanaev, Maumarov, Eminov were ill for 12-15 days and all of them died on July 15-16.

In conclusion, it can be said that the implementation of Resolution No. 2414 of the State Defense Committee had a positive effect on quantitative and qualitative indicators. The presence of a certain

workforce in industry and construction led to a certain stabilization of the Soviet economy during the war. As a result of the unfavorable climate, household and living conditions, as well as hard and trying labor in foreign lands, more than 150 thousand of our compatriots were forced to endure the blows of the past.

Thanks to their dedicated and hard work, production was fully focused on the front, and they made a worthy contribution to the victory over fascism during the Second World War.

Мақоланинг инглиз тилидаги кенгайтирилган аннотацияси (мақола автореферати). Ҳажми 2500-3000 белги оралиғида. Тузилиши: мақсад, қўлланилган материал ва усуллар, натижалар ва хулоса. Сизда 4007 та.

References:

1. Saidov, A. (2021*) Park pobedy: filosofiya muzhestva i stojkosti* [Victory Park: Philosophy of Courage and Fortitude]. Tashkent: TASVIR.

2.Kirillov,V.M.(et.al.) (2011) Kniga pamyati. Nemcev-trudarmejcev ITL Bakalstroj-Chelyabmetallurgstroj. 1942–1946 gg. [Book of Memory. German labor army soldiers of the ITL Bakalstroy-Chelyabmetallurgstroy. 1942–1946]. In 4 volumes. Vol.1. Moscow: Nizhnij Tagil.

3. Shmyrov, B.D. (2009) Metall Pobedy: «My za cenoj ne postoim?!» [Victory Metal: “We won’t stop at anything?!”]. Stranicy istorii. Chelyabinsk: Chelyabinskij Dom pechati. Pp. 47-99.

4. Ob”edenyonnyj Gosudarstvennyj arhiv Chelyabinskoj oblasti [United State Archives of the Chelyabinsk Region - USACHR]. Fund R-1619, List 1, Case 56, Sheets 110.

5. Rossijskij gosudarstvennyj arhiv sociaol’no-politicheskoj istorii (RGASPI) [Russian State Archive of Social and Political History - RSASPH]. Fund 17, List 122, Case 50, Sheet 6.

6. USACHR. Fund R-792, List 5, Case 46, Sheet 77.

7. USACHR. Fund R-1619, List 1, Case 52, Sheet 11.

8. USACHR. Fund R-124, List 1, Case 359, Sheet 127.

9. RSASPH. Fund 17, List 122, Case 50, Sheet 70.

10. USACHR. Fund R-1659, List 1, Case 13, Sheet 112.

11. USACHR. Fund R-1619, List 2, Case 15, Sheet 32.

12. USACHR. Fund R-288, List 42, Case 23, Sheets 335, 336.

13. USACHR. Fund R-234, List 17, Case 64, Sheet 13.

14. USACHR. Fund R-234, List 17, Case 64, Sheet 16.

15. USACHR. Fund R-234, List 17, Case 64, Sheet 17.

Muallif haqida ma’lumot:

KURBANOV Xurshid Raupovich – Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi” direktori, tarix fanlari nomzodi, dotsent. E-mail: xurshid.kurbanov82@mail.ru